NAVOIY VILOYATI UCHQUDUQ TUMAN HOKIMINING QARORI

Uchquduq tuman A.Temur - 28 tel: (79) 222-00-05

2021 - yil 30 - dekabr 99-5-76-Q/21 Uchquduq tumani hokimligi

Uchquduq tumanidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 10.04.2013-yildagi O‘RQ-348-son), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-martdagi 272-sonli “Transport vositalarini majburiy tarzda texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, tuman hududidagi transport vositalarini 2022-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish va uni o‘tkazishni ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’i nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2022-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan

ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-mart – 30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentabr – 31-oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari - yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari jalb etilishi mumkin.

jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligi o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimligi axborot xizmat rahbari - matbuot kotibi (R.Qodirova) ushbu qarorni ommaviy axborot vositalariga keng yoritilishini hamda Uchquduq tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari O.Ramazonov, ijrosini tashkil etish Uchquduq tuman IIB boshlig‘i A.Rayxanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **S.Xamroyev**

Учқудуқ туман ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
99-5-76-Q/21-сон қарорига
1-илова

Majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasining

T A R K I B I

T/r	F.I.O	Ish joyi va lavozimi
1.	A.Raxmonov	Tuman IIB YHXG DYHX katta inspektori, ***ishchi guruh rahbari***
2.	B.Raximov	Navoiy viloyati transport boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
3.	O.Ro‘ziyev	Tuman mudofaa ishlari bo‘limida texnika hisobini yurituvchi xodim
4.	O.Aslonov	NKMK Shimoliy kon boshqarmasi harakat xavfsizligi muhandisi
5.	N.Nasriddinov	Tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi
6.	T.Sirojov	Majburiy ijro byurosi boshlig‘i
7.	A.Nematov	Ma’muriy amaliyot xodimi – komissiya kotibi

Учқудуқ туман ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
99-5-76-Q/21-сон қарорига
2-илова

Uchquduq tumani IIB YHXGda ro‘yxatda turgan transport vositalariga ega bo‘lgan avtokorxona, tashkilot, xususiy korxonalarning 2022-yilgi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish

J A D V A L I

T/R	Tashkilot, korxona, idora va uyushmalarning nomlari	TV soni	Kuni va vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joyi
1	NGMK SEV.RU A/B-1	375	14-28.03.2022-yil 11-25.04.2022-yil 08-16.05.2022-yil 13-27.06.2022-yil	Korxona hududida
2	NGMK SEV.RU GTR	25	10.04.2022-yil 15.05.2022-yil	Korxona hududida
3	NGMK SEV.RU GMZ-3	9	17.04.2022-yil	Korxona hududida
4	KOKPATAS DGKE	21	18.04.2022-yil 25.05.2022-yil	Korxona hududida
5	NGMK SEV.RU UAT	17	24.04.2022-yil	Korxona hududida
6	NGMK SEV.RUssMTB	6	15.05.2022-yil	Korxona hududida
7	BUKANTAU GTBP	40	04.04.2022-yil 23.05.2022-yil	Korxona hududida
8	UCHQUDUQ-QIMIZ MCHJ	63	13-27.03.2022-yil	Korxona hududida
9	ISKANDAR-ISHONCH-TRANS-SERVIS MCHJ	35	12-24.04.2022-yil 07-15.05.2022-yil	Korxona hududida
10	ISKANDAR GRAND INVEST MCHJ	4	12-26.06.2022-yil	Korxona hududida
11	UCHQUDUQ-RAVON-YO‘L MCHJ	48	09.04.2022-yil 14.05.2022-yil 25.06.2022-yil	Korxona hududida
12	FARRUX-UCHQUDUQ TRANS MCHJ	58	08.04.2022-yil 14.05.2022-yil 24.06.2022-yil	Korxona hududida
13	UCHQUDUQ TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	14	10.05.2022-yil	Korxona hududida
14	UCHQUDUQ TUMAN Y.F.U.K	19	06.04.2022-yil 22.05.2022-yil	Korxona hududida
15	UCHQUDUQ TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	5	16.04.2022-yil	Korxona hududida
16	UCHQUDUQ TUMAN TOZA HUDUD DUK	5	15.04.2022-yil	Korxona hududida
17	UCHQUDUQ TUMAN HOKIMLIGI	9	25.04.2022-yil	Korxona hududida
18	MK VATANPARVAR USTK	7	13.04.2022-yil	Korxona hududida
19	UCHQUDUQ-SAVDO MCHJ	12	15.05.2022-yil	Korxona hududida

20	UCHQUDUQ TEMIR YO‘L MASOFASI	4	17.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
21	UCHQUDUQ TUMAN VETERENARIYA BO‘LIMI	2	05.03.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
22	UCHQUDUQ BEK BARAKA MCHJ	2	15.03.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
23	NGMK SEV.RUssTVGSIK	2	15.03.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
24	UR MB RIX DUK NAVOIY VIL BOSHQARMASI UCHQUDUQ SHAHAR BO‘LIMI	3	26.03.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
25	BANDLIKKA KO‘MAKLASHISH MARKAZI	2	15.03.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
26	TEMURBEK FAYZ F/X	2	15.03.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
27	O‘ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI	2	28.03.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
28	UCHQUDUQ SANOAT TEXNIKUMI	2	28.03.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
29	SHOIRA YODGOR MCHJ	2	19.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
30	SHOXBEK BIZNES FARM MCHJ	2	19.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
31	AYGERIM ALMAGUL X/K	2	21.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
32	GRANT UCHQUDUQ MCHJ	2	21.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
33	YEVROMETAL-AZIA MCHJ	2	26.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
34	UCHQUDUQ KASB-HUNAR MAKTABI	1	26.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
35	MIKROKREDITBANK ATB	1	17.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
36	SUDLAR FAOLIYATINI TA'M.DEPART NAV.VIL.BO‘LIMI	1	19.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
37	UCHQUDUQ GAZETA TAHRIRIYATI DAVLAT KORXONASI	1	16.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
38	UCHQUDUQ DAVLAT O‘RMON XO‘JALIGI	1	15.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
39	UCHQUDUQ DEHQON BOZORI MCHJ	1	15.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
40	UCHQUDUQ POCHTA ALOQA TARMOG‘I	1	15.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
41	UCHQUDUQ TUMAN QISHLOQ XO‘JALIK BO‘LIMI	1	15.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
42	UCHQUDUQ TUMAN MA'MURIY SUDI	1	13.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
43	UCHQUDUQ TUMAN HOKIMIYATI MOLIYA BO‘LIMI	1	13.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida

44	UCHQUDUQ TUMAN HOKIMLIGI XALQ QABULXONASI	1	13.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
45	UCHQUDUQ TUMANI "MAHALLA" XAYRIYA JAMOAT FONDI	1	19.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
46	UCHQUDUQ TUMANI DSI	1	19.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
47	UCHQUDUQ TUMANI DSENM	1	18.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
48	UCHQUDUQ TUMANI XALQ TA'LIMI BO‘LIMI	1	18.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
49	BUXORO MINTAQAVIY TEMIR YO‘L UZELI UCHQUDUQ TEMIR YO‘L MASOFASI	1	23.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
50	BUXORO MINTAQAVIY TEMIR YO‘LI "TIKLASH POYEZDI-4310"	1	23.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
51	BUXORO HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH OTRYADI	1	23.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
52	QANARBAY OTA XAYRIYA JAMG‘ARMASI	1	27.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
53	MAJBURIY IJRO BYUROSI NAVOIY VILOYAT UCHQUDUQ TUMANI BO‘LIMI	1	27.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
54	SHIMOL OVQATLANISH KOMBINATI	1	27.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
55	BARAKA-SERVES-UCHQUDUQ FX	1	27.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
56	ONIKS MCHJ	1	29.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
57	RAVSHAN GULSHAN RAVNAQI MCHJ	1	29.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
58	TARLON OIL GAZ MCHJ	1	05.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
59	UCHQUDUQ NAVRO‘Z MCHJ	1	05.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
60	UCHQUDUQ-NEDRA MCHJ	1	05.04.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
61	UCHQUDUQ MILK-2000 MCHJ	1	04.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
62	XAYOTJON MCHJ	1	04.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
63	ALTINTOU-KALIN MCHJ	1	04.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
64	VEST DREAM INVEST MCHJ	1	23.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
65	GULI MOXLAROYIM X/K	1	23.05.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
66	DAUGIZTAU DGQE	1	09.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
67	ZUXRIDDIN-NUR X.K	1	09.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida

68	ISLOMIDDIN-MAXMUDJON F/X	1	09.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
69	ISHONCH-FERUZ X.K	1	09.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
70	KOLOSOK MCHJ	1	10.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
71	NASIBA SHIRINLIKLARI X/K	1	10.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
72	NURAFSHON NUR BIZNES MCHJ	1	10.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
73	OOO "UCHQUDUQ AGRO COMPLEX"	1	12.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
74	OOO HEART OF UCHQUDUQ	1	12.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
75	JEWELERY STONE MCHJ	1	12.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
76	LANMAIJIYUAN MCHJ	1	14.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
77	NEW STAR UCHQUDUQ MCHJ	1	14.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
78	SARVIGUL CHARROS SEVARA D.X	1	14.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
79	AZIZJON MUNISXON-KELAJAGI X/K	1	15.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
80	DINARABONU-GRANT MCHJ	1	15.06.2022-yil	Tuman IIB YHXG binosida
JAMI;		**851**		

Izoh: Qolgan tashkilotlar, xususiy kichik korxonalarga tegishli bo‘lgan transport vositalari haftaning shanba kunlari Uchquduq tumanidagi “Uchquduq-Qimiz” MCHJda texnik ko‘rikdan o‘tkazadilar.